

9. Qayumova I. O'zbekistonning yangi sifat bosqichi iqtisodiy rivojlanishi jarayonlarini iqtisodiy tadqiq qilish. Iqtisodiy fanlari doktori dissertatsiyasi. - T.: 2012. - 289 b.

10. Shodiev T. Modernizatsiya, intellektuallashtirish va diversifikatsiya asosida iqtisodiy o'sish sifatini oshirish // Ilmiy elektron jurnal "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar». - T.: 2011, № 1.

11. S.Kapella «Iqtisodiy rivojlanishga o'tishda institutsionai omilning roli». "Modernizatsiya strategiyasi va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash" III O'zbekiston iqtisodchilar forumi nashrlar to'plami. IPMI, GIZ, BMTTD, Toshkent, 2017.

12. Vahabov A. Iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash metodologik jihatlar // O'zbekiston iqtisodiyotining institutsionai rivojlanishi: yutuqlar, muammolar, yechimlar yo'li konferentsiyasi materiallari. - T.: TDIU, 12.03.2016.

XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISH AMALIYOTLARI VA BARQAROR MOLIYALASHTIRISH MODELLARI

Xurramov Jonibek Rustamovich

Toshkent shahridagi Turkiyaning

Iqtisodiyot va Texnologiyalar Universiteti,

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda xorijiy oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy rejalashtirish amaliyotlari o'rganilib, ularning oliy ta'lim muassasalarining barqarorligi, samaradorligi va rivojlanishiga bo'lgan ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda moliyalashning turli modellari hamda xorijiy oliy ta'lim muassasalarining moliyalashtirish manbalari va mexanizmlarining o'rni ko'rib chiqilgan. Yevropa mamlakatlaridagi oliy ta'lim tizimlarining moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilinib, barqaror moliyalashtirish modelini yaratish bo'yicha takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'limni moliyalashtirish, moliyaviy rejalashtirish modellari, oliy ta'lim muassasalari (OTM), byurokratik moliyalashtirish modeli, jamoaviy moliyalashtirish modeli, bozor tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish, blok grantlar, oliy ta'lim avtonomiyasi, davlat mablag'larini taqsimlash, Yevropa oliy ta'limi, ta'lim subsidiyalari.

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy rejalashtirish strategik boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi. Xorijiy amaliyotni, ayniqsa rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim muassasalaridagi moliyaviy rejalashtirish amaliyotidagi tajribasini o'rganish moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash bo'yicha muhim tajribalarni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda oliy ta'limga bo'lgan talabning oshib borishi fonida, dunyodagi turli mamlakatlarda OTMlar faoliyatiga mos ravishda moliyaviy rejalashtirish strategiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, ularda asosan e'tibor moliyaviy manbalar, resurslarni to'g'ri taqsimlash va moliyaviy boshqaruv masalalarini hal qilishga

qaratiladi. Bizning fikrimizcha, xorijiy tajribani o'rganish oliy ta'lim tizimida moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish jarayonini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu, shuningdek, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni inobatga olgan holda moliyalashtirish modellarini va institutlarini joriy etish bo'yicha tajribani mamlakatimiz OTMlarida ham qo'llash istiqbollari nuqtai nazaridan ham muhim deb hisoblash mumkin.

Dunyo mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning asosiy uch turlari mavjudligi ta'kidlangan. Ushbu usullar to'g'risida quyida muxtasar sharhlar keltirib o'tiladi.

1) *Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning byurokratik modeli (bureaucratic model)*. Byurokratik moliyalashtirish modelida oliy ta'lim muassasalarining budjetlari to'liq davlat mablag'lari hisobidan qoplanadi. Bu modelda davlat OTMlarning barcha faoliyatlarini huquqiy va moliyaviy vositalar orqali boshqariladi. Ushbu usulda yuqori turuvchi davlat organi:

- fakultetlar va xodimlar sonini belgilaydi;
- qabul qilinadigan talabalar sonini aniqlaydi;
- ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarini shakllantiradi;
- moliyaviy resurslardan foydalanishni nazorat qiladi.

Natijada, muassasalar davlat buyurtmalarini bajaruvchi tashkilot sifatida faoliyat yuritadi, bu esa ularning avtonomiyasi va akademik erkinligini cheklaydi.


2) *Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning jamoaviy (kollegial) modeli (collegial model)*. Jamoaviy moliyalashtirish modeli oliy ta'lim muassasalariga davlat subsidiyalaridan foydalanish bilan bir qatorda xususiy mablag'larni jalb qilishni ham nazarda tutadi. Bu jarayonga shartnoma asosidagi ta'lim, loyiha xizmatlari ko'rsatish va ilmiy-tadqiqot faoliyatidan daromad olish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Ushbu model moliyaviy mustaqillikni qo'llab-quvvatlab, OTMlarga resurslarni samarali boshqarish va taqsimlash huquqini beradi. Garchi davlat mablag'lari budjetning asosiy qismini tashkil etsa ham, resurslardan foydalanish bo'yicha qarorlar OTM darajasida, masalan, maxsus kengashlar tomonidan qabul qilinadi. Ushbu yondashuv davlatning moliyaviy ko'magini OTMlarning mustaqilligi bilan uyg'unlashtirib, moliyaviy qarorlarning davlat, jamoatchilik va akademik manfaatlarga mos kelishini ta'minlaydi.

3) *Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning bozor tamoyillari asosida moliyalashtirish modeli (market model)*. Bozor tamoyillari asosidagi moliyalashtirish modeli oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy manbalarini diversifikatsiya qilishga asosan urg'u beradi hamda davlat subsidiyalaridan ko'ra xususiy sektor mablag'lariga ko'proq ustuvorlik beradi. Bu yondashuv OTMlari, talabalar, ish beruvchilar, davlat va muassasa boshqaruv organlari o'rtasida yaqin hamkorlikni talab qiladi. Bu esa bozor ehtiyojlariga mos ravishda samarali va sifatli faoliyatni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu modelning asosiy afzalliklaridan biri oliy ta'lim muassasalari o'rtasida xususiy sektor resurslari uchun raqobatni rag'batlantirishidir. Bu raqobat OTMlarni o'qish to'lovlarini pasaytirish, ta'lim sifatini yaxshilash va bozor talablariga moslashuvchanlikni oshirishga undaydi. Natijada, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom

raqobatbardoshlik oshib ta'lim sifatini asta sekinlik bilan oshib borishiga erishiladi.

Bizning fikrimizcha yuqorida muhokama qilingan oliy ta'limni moliyalashtirish modellari asosida fikr yuritadigan bo'lsak, xususiy moliyalashtirish manbalarini jalb qilish uchun eng samarali bo'lgan model — bu *bozor tamoyillari asosida moliyalashtirish modeli* hisoblanadi. Bozor tamoyillari asosidagi moliyalashtirish modelining afzalliklarini quyidagicha izohlash mumkin:

—*Xususiy donorlarning ishtiroki*: Bu modelda xususiy donorlar o'z investitsiyalari ustidan to'liq nazoratni yo'qotmaydi. Ular mablag'larning maqsadli ishlatilishi shartlarini belgilash orqali o'z sarmoyalarining foydalanilishiga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega. Bu esa xususiy donorlik mablag'larining jalb etilishini rag'batlantiradi. Jamoaviy modelda donorlar o'z mablag'lari ustidan nazoratni butunlay yo'qotib, faqat oliy ta'lim muassasalariga bo'lgan ishonchga tayanadilar.



1-jadval. Davlat mablag'larini taqsimlash mexanizmlarining soddalashtirilgan ko'rinishi

—*Bozor ehtiyojlariga moslashuvchanlik*: Bozor tamoyillari asosidagi moliyalashtirish modeli bozor talablarini inobatga oladi va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobatni rag'batlantiradi. Bu esa OTMlarni mablag'lardan samarali foydalanishga, ta'lim sifatini oshirishga va bozor ehtiyojlariga moslashishga undaydi. Ushbu yondashuv oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

Yevropa oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tajribasi

Yevropadagi oliy ta'lim muassasalariga davlat mablag'lari asosan *"Blok grant"* shaklida taqsimlanadi (1-jadval).

Ushbu turdagi grantni taqsimlashda turli mexanizmlardan foydalaniladi. Jumladan, natijaga asoslangan moliyalashtirish (Performance-Based Funding), formula asosida moliyalashtirish (Formula-Based Funding), erishilgan natijalarga asosan moliyalashtirish (Historical Allocations) hamda maxsus samaradorlik shartnomalari (Specific Performance Contracts) asosida moliyalashtirish shakllarini davlat mablag'larini taqsimlashdagi asosiy usullar deyish mumkin. Bu grantni taqsimlash mexanizmlari OTMlarga mablag'larni taqsimlashda adolat va samaradorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Natijaga asoslangan moliyalashtirish (Performance-Based Funding): bu moliyalashtirish mexanizmi oliy ta'lim muassasalariga (OTM) ajratiladigan mablag'lar ularning faoliyat ko'rsatkichlari va natijalariga asoslangan holda taqsimlanadi. NAMning asosiy maqsadi – OTMlarni samaradorligi va sifatini oshirishda rag'batlantirishdir. Faoliyat ko'rsatkichlariga – bitiruvchilar soni, talabalar o'qishini yakunlash darajasi yoki mehnat bozoridagi talabgorliklar ushbu usuldagi taqsimot mezonlariga misol bo'la oladi.

Formula asosida moliyalashtirish (Formula-Based Funding): mazkur mexanizm mablag'lar belgilangan formulalar asosida hisoblanadi. Bu modelda, moliyalashtirish miqdori turli omillarga, masalan, talabalarning soniga, ularning o'qish yo'nalishiga, ilmiy tadqiqot faoliyatining darajasiga yoki boshqa o'lchovlarga bog'liq bo'lishi mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, bizning tadqiqotimiz natijasiga ko'ra, Yevropa OTMlarning 3 dan 2 qismida davlat mablag'larini yetkazib berishning mazkur moliyalashtirish mexanizmi qo'llaniladi.

Erishilgan natijalarga asosan moliyalashtirish (Historical Allocations): ushbu moliyalashtirish mexanizmidan oldingi yillardagi moliyalashtirish darajalari asosida mablag'lar taqsimlanadi va bu miqdor asta-sekinlik bilan o'zgaradi. Bu tizim dinamik bo'lmasa-da, moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi.

Maxsus samaradorlik shartnomalari (Specific Performance Contracts): bu moliyalashtirish mexanizmi ijro shartnomalari, maqsadli kelishuvlar yoki rivojlanish shartnomalarini o'z ichiga oladi, ular orqali ma'lum maqsadlar davlat organlari va OTMlar o'rtasida kelishib olinadi.

Ushbu tadqiqot xorijiy oliy ta'lim muassasalaridagi moliyaviy rejalashtirish amaliyotlarini va ularning barqaror moliyalashtirish modellari o'rtasidagi aloqani tahlil qildi. Tadqiqotda ko'rsatilganidek, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning samarali usullari ularning iqtisodiy barqarorligini

ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy ehtiyojlarga javob berish imkoniyatlarini yaratadi. Byurokratik, jamoaviy va bozor tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish modellari har biri o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ayniqsa, bozor tamoyillari asosidagi moliyalashtirish modeli, xususiyl moliyaviyl manbalarni jalb qilish va ta'limning samaradorligini oshirish borasida samarali strategiya sifatida ko'rsatilgan. Yevropa mamlakatlarida, masalan, blok grantlar mexanizmining natijaga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda, bu esa oliyl ta'lim muassasalarining moliyaviyl mustaqilligini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Mazkur moliyalashtirish usullarining har biri ijtimoiyl-iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda joriyl etilishi, davlat va xususiyl sektor o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, oliyl ta'lim muassasalarida moliyaviyl rejalashtirishni rivojlantirish va amalga oshirishda mamlakatlarning o'ziga xos ijtimoiyl-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olish zarur hisoblanadi. Shu bois, xorijiy tajriba asosida O'zbekistonning oliyl ta'lim tizimida barqaror moliyalashtirish modellari va samarali moliyaviyl rejalashtirish amaliyotlarini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pranevičienė B., Pūraitė A. The financing methods of higher education system //Jurisprudencija. – 2010. – T. 122. – №. 4. – S. 335–356-335–356.
2. Contracts may also include input-based criteria. Revised version of: Bennetot Pruvot, E., ClaeysKulik, A.-L. and Estermann, T. (2015) Designing strategies for efficient funding of universities in Europe, EUA, Brussels, p.26
3. Enora Bennetot Pruvot and Thomas Estermann, European University Association, Allocating core public funding to universities in Europe: state of play & principles, March 2022
4. European University Association, define project: designing strategies for efficient funding of universities in Europe, 2015.
5. Lesia Leshanych¹, Iryna Miahkykh², Mariana Shkoda³, Models of financing of higher education institutions in foreign countries, Baltic Journal of Economic Studies, Vol. 4, No. 5, 2018.

"O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA MINTAQADA SANOAT KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH HOLATINING MOLIVAVIY JIHATLARI

Kadirov San'at Yuldashevich,
Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Mintaqada sanoat klasterlarini rivojlanishi uning bugungi kundagi holati orqali ta'minlanadi. Sanoat klasterlari korxonalarining eng muhim turi sifatida namoyon bo'ladi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida sanoat tarmoqlarida klasterlar faoliyatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor